

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.A. Abduvaliyeva

Markaziy Osiyo o'tta paleolit manzilgohlarining fanda o'rganilishi tarixi (I qism)	654
A.A. Nishonov	
Farg'ona vodiyisida Sevinchxojaxon va Sulton Saidxon kurashi	664
A.A. Aloxunov, B.B. Jo'raqulov	
Tunkat tarixi yozma va arxeologik manbalarda	673
A.A. Nishonov	
Sevinchxojaxon xonadoni tarixi manbalarda yoritilishi	677
R.X. Akbarov	
Turkiston yevropalik aholi vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki	681
R.X. Akbarov	
Turkiston mahalliy vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki	685
S.V. Yo'ldoshev	
Xalq o'yinlarining tarixiy ildizlari va lokal xususiyatlari	691
A.M. Maximov	
XX asrning 20-30 yillarda Buxoro amirligi muhohijrlari taqdiri	695
A.M. Maximov	
Usmon Xo'ja avlodlari qayerda?	698

ADABIYOTSHUNOSLIK**K.A. Topvoldiyev**

Use of antonyms in Russian fiction and in religious self-consciousness	701
--	-----

H.K. Sabirov

Средняя Азия в путевых заметках Ф. С. Ефремова	706
--	-----

A.P. Kosimov

Конвергенции наследия Т.Мурода с духовным богатством национальной и мировой культуры	710
--	-----

H.A. Jo'rayev, Y.I. Nishanov

Yusuf qissasi syujetining sayyorlik omillari	715
--	-----

H.M. Karimova

Отражение времени: концепция исторического романа в литературе	718
--	-----

Y.I. Nishanov

Umuminsoniy g'oyalar ifodasida ijodiy ta'sirning o'rni	722
--	-----

I.N. Doronina

«Отражение современных социальных реалий в современной Русской литературе»	726
--	-----

Э.Ф. Гиздулин

Мотив пандемии в художественной постапокалиптической фантастике	729
---	-----

X. Sharifiddinov

Zamon qiyofalangan tarixiy roman	732
--	-----

E.Ibragimova, N.Sharafutdinova

Teonimik tushuncha ifodalovchi mifologik obrazlar	735
---	-----

G.V. Abdullayeva

Lof she'rlar poetikasi va badiiy-estetik funksiyasi	738
---	-----

S.A. Xodjayev, Ch.I. Turg'unova

O'zbek va jahon folklori namunalarida uchlilik va beshlik timsollarining poetik kombinatsiyalari	745
--	-----

X.A. Abdulxamidova, D.U. Jamoliddinova

Isajon Sulton hikoyalarida peyzajning badiiy ifodalanishi	749
---	-----

X.J. Jamolova

Zullisonaynlik an'anasi va ijodiy ta'sir masalalari	752
---	-----

M.M. Xamidov

O'zbek tarixiy romanlarida qahramon talqini masalasiga doir	755
---	-----

R.M. Umurzakov

Bola obrazining nazariy muammolari	761
--	-----

J.B. Sayidolimov

"Vasiyatnoma" – kichik agiografik asar	765
--	-----



УО'К: 93/99+330.09,330.18

TUNKAT TARIXI YOZMA VA ARXEOLOGIK MANBALARDA**ИСТОРИЯ ТУНКАТА В ПИСЬМЕННЫХ И АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКАХ****HISTORY OF TUNKAT IN WRITTEN AND ARCHAEOLOGICAL SOURCES****Alisher Ahmadjonovich Aloxunov** 

Farg'ona davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasи dotsenti, PhD

Bobur Baxodir o'g'li Jo'raqulov

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi doktoranti

Annotatsiya

Maqolada o'rta asrlarda lloq poytaxti bo'lgan Tunkat shahri yozma va arxeologik manbalarda aks etishi masalasi yoritib berilgan. Ma'lumki, Tunkat-Imloq shahar lokalizatsiyasi va topografiysi masalasi olib borilgan tadqiqotlar natijasida uzoq vaqt munozaralarga sabab bo'llib kelayotgan jihatlarni keltirib chigardi. Jumladan, yozma manbalardagi Tunkat tafsifi arxeologik materiallarda o'z tasdig'ini topmasdan kelmoqda. Maqolada bu boradagi yangi ma'lumotlar jamlanib ba'zi mulohazalar berilgan.

Аннотация

В статье дана информация о городе Тункате, отраженный в письменных и археологических источниках, который в средние века был столицей Илака. Известно, что в результате проведенных исследований вопрос локализации и топографии города Тункет-Имлок вызывает споры среди исследователей. В частности, описание Тунката в письменных источниках не подтверждено археологическими материалами. В статье обобщена новая информация по этому поводу и даны некоторые комментарии.

Abstract

The article highlights the problem of Tunkat, which was the capital of Ilak in the Middle Ages, reflected in written and archaeological sources. It is known that as a result of research, the localization and topography of the city of Tunkat-Imlok have been discussed for a long time. In particular, the description of Tunkat in written sources has not been confirmed in archaeological materials. The article summarizes new information on this matter and provides some comments.

Kalit so'zlar: yozma manbalar, arxeologik materiallar, Tunkat, Imloq, lloq, Ohangaron, Choch, Suyurlitepa, lokalizatsiya, topografiya, ark, ko'handiz, rabod.

Ключевые слова: письменные источники, археологические материалы, Тункет, Имлак, Илак, Ахангеран, Чач, Суюрлитепа, локализация, топография, цитадель, кухандиз, рабад.

Key words: written sources, archaeological materials, Tunket, Imlak, Ilak, Ahangeran, Chach, Suyurlitepa, localization, topography, citadel, kuhandiz, rabad.

KIRISH

O'rta asrlar davri yozma manbalarida Tunkat – Imloqning asosiy jihatlari klassik shaharsozlik tizimida buniyod etilganligi, metallurgiya sohasiga ixtisoslashganligi hamda u yerda Imloq hukmdori yashaganligi haqida bir qancha ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Biroq, o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar manbalarda qayd etilgan ma'lumotlar va tadqiqotchilarning xulosalari o'zaro uyg'unlashmasdan qolib kelmoqda. Shu o'rinda Ohangaron havzasasi o'rta oqimida olib borilayotgan so'nggi arxeologik tadqiqotlarda ba'zi yangi ma'lumotlar keltirilib, lloqning poytaxti masalasida tadqiqotchilar orasida bo'linish hosil qildi.

Dastlabki taxminlar S.A.Ashirov tomonidan bildirilgan bo'lsa-da, uning qisqa vaqt davom etgan tadqiqotlari yetarlicha asos bera olmadi [1:355-362]. Keyingi tadqiqotlar A.A.Asqarov boshchiligidagi guruh tomonidan Suyurlitepa arxeologik yodgorligida olib borilmoqda [2:345-354].

Suyurlitepa arxeologik obyektining topografik holati va guruh tomonidan qo'lga kiritilgan bir qancha artefaktlar yuqorida tilga olingen muammoni bir qadar yechish uchun sabab keltirib chiqardi.

Imloq va Tunkat shaharlarining lokalizatsiyasi M.E.Masson va uning izdoshi Yu.F.Buryakovlarning tadqiqotlari natijasida amalga oshdi. M.E.Masson Tunkat shahrini Ohangaron daryosining chap qirg'og'iда joylashgan hozirda Sarjayloq qishlog'i hududiga to'g'ri keluvchi Imloq shahar harobalariga joylashtiradi. Bunga asos qilib yozma manbalarda Abbosiylar va Somoniylar davrida ikkala hududni bitta soliq to'lovchi joy sifatida qayd qilingani olinadi [3:25-37].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tunkat yozma manbalarda Choch mulki sifatida Turk xoqonligi tarkibiga kirgan davrlardan boshlab e'tirof etila boshlaydi. Yozma manbalarda ham uning ta'rifi juda kam uchraydi. Al-Istaxri ma'lumotlariga ko'ra, Tunkat kattaligi bo'yicha Binkatning (Toshkent) yarmicha keladi. Unda ko'handiz va rabod joylashgan. Ko'handizda amir saroyi, rabodda esa bozor joylashgan. Shahriston va rabodda oqar suv tizimi bo'lgan. Bundan tashqari u "Movarounnahrda Samarqand va Tunkatdan boshqa joyda zarbxona yo'q"ligiga alohida urg'u beradi[4:24-34]. Ibn Xavqal al-Istaxri bergen ma'lumotlarni to'ldirib, "Iloq darosi bo'ylab shahar chetiga devor qurilgan"ligi, shahriston ichkarisida bozor bo'lganligi, ark yaqinida juma masjidi va qamoqxona bo'lganligi haqida yozadi[5:509].

Bir guruh tadqiqotchilar Tunkat nomi turk xoqonligi ma'murchiligidagi foydalaniladigan amal yoki mansab bilan bog'liq deb xisoblab, tutuq yoki tutun-tudun unvonni Tunkat atamasi shakllanishiga asos bo'lganligini bildiradilar. M.Xatamova tilshunos B.Lurye keltirgan keltirgan ma'lumotlariga hamda VI-VIII asrlardagi joy nomlarining muayan qismini tashkil qiluvchi sug'd toponimlarining butun voha bo'ylab yoyilganini inobatga olgan holda sug'dlar Choch yerlarida anchadan beri muqim yashagan degan fikrga keladi. Xususan, Chochda sug'dcha "kat" topoformanti bilan tugovchi toponimlar keng tarqalgan bo'lib, arablar bosqinidan so'ng "kat" so'zi "kent" bilan almashgani aholining turklashishi, qisman forslashishi bilan bog'liq deb xulosa beradi [6:127]. Ushbu hudud o'rta asr yozma manbalarida Imloq deb atalgan.

Manbashunos olim Sh.Kamoliddin "Iloq" so'zining o'zagini turkiy tildagi "ayloq" yoki "yayloq", yozgi yashash joyini anglatuvchi "yozgi yaylov", chorva boqiladigan joylarni bildiruvchi atama ekanligini hamda ilk o'rta asrlar davri manbalarida Choch va Iloq hududlarida o'zagi turkiy tilga tegishli bo'lgan 30 dan ortiq toponimlar bo'lganligini ma'lumot sifatida keltirib o'tadi[7:354-373]. Nomlari kelib chiqishi turkcha bo'lgan Alaxanjaz (Alag'jaz), Arbilax, Itlig' (Itliq, Oqliq), Namudlig' (Yaxudlig'), Arpalig' (Abarlig'), Balakanak, Guzjand kabilalar qatorida, bosh shahar Tunkand (Tunkat) nomi ham keltirib o'tiladi.

Manbashunos P.B.Lurye al-Istaxri va Ibn Xavqallar keltirgan ma'lumotlar asosida "Tukkat" nomini insonlar nomi bilan bog'liq – antropotoponim sifatida Iloq viloyatida hukmdorlik qilgan turkiy unvon "tutuq" nomi bilan bog'laydi va "tutuq shahri" sifatida keltiradi[8:185-212].

Sug'dlar ta'sirida shakllangan to'g'riburchak va kvadrat rejali shaharlar ko'proq vohanining Sirdaryoga yaqin g'arbiy qismida joylashgan edi. Bunday shaharlarning u yoki bu burchagida mustahkam kvadrat shakldagi ark joylashgan bo'lib, shahar va ark handaqlar bilan qurshalgan edi [9:79].

Imloq haqida arxeologik materiallar asosidagi dastlabki ma'lumotni XIX asr oxirida M.S.Andreyev, 1926-yilda S.F.Mashkovsev eslab o'tadi hamda Qoramozor ruda konlari qadimgi metallurglar e'tiborini tortganligini ta'kidlaydi [10:41]. 1928-yili P.T.Knyazev bu yerlardagi toshqollar uyumini ko'rib, bu joyda metallurglar yashaganligi to'g'risida taxmin qiladi. Taniqli arxeolog M.E.Masson Geologiya qo'mitasining O'rta Osiyo bo'limi xodimi B.N.Nasledov tashabbusi bilan 1929-yilda obyekt bilan tanishib, 1934-yilda V.D.Jukov bilan birgalikda shaharning dastlabki tarixiy topografiyasini tafsifini berishadi va topograf K.I.Lexnovich esa yodgorlikning topografik tarxini tuzadi[11:66-99]. Shuningdek, ular Iloq poytaxti Tunkat bilan bog'liq masalalarga oydinlik kiritishga harakat qilganlar[12:70-93].

1955-yilda sobiq SSSR FA Tabiy va texnika fanlari tarixi instituti "Qadimda va o'rta asrlarda O'rta Osiyoda geologik bilimlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi" mavzusida materiallarni jamlash uchun geolog va arxeologiya ixlosmandi O.I.Islomov boshchiligidagi guruh o'z faoliyatini boshaydi. Ushbu guruh faoliyatidan ilhomlangan O'zbekiston SSR Tarix va arxeoliyiya instituti va O'zbekiston xalqlari tarixi

TARIX

muzeyi xodimlari 1959-yilda Chotqol-Qurama va Ohangaron sanoat hududi tog'-konchiligi yodgorliklарини tadqiq etish uchun ekspeditsiya tashkil etishadi. Ushbu ekspeditsiya 1968-yilga qadar faoliyat olib borib, ushbu hudud arxeologiyasi va tarixini o'rganishda salmoqli muvaffaqiyatlarga erishadi. Ekspeditsiya tarkibida 1959-yilda Yu.F.Buryakov, E.Yu.Buryakova, V.A.Belousov va S.X.Eshonxonovlar; 1960-yilda Yu.F.Buryakov, S.B.Lunina, Z.I.Usmanovalar; 1962-yilda Yu.F.Buryakov, S.X.Eshonxonov va V.Istroilovlar; 1963-yilda Yu.F.Buryakov va O.M.Rostovsevlar; 1966-yilda esa Yu.F.Buryakov, K.Abdullayev, L.G.Brusenko, G.Dadaboyev va O.M.Dadaboyevlar; 1968-yilda esa Yu.F.Buryakov va O.M.Rostovsevlar faoliyat olib bordilar. Ushbu guruh bir qancha yodgorliklarda qazishma o'tkazib, asosan ko'tarma materiallarni to'plab, ularni yozma manbalardagi ma'lumotlar bilan taqqoslab, Ohangaron vodiysi shahar va qishloq manzilgohlari qoldiqlari arxeologik xaritasini tuzib chiqdi. Tadqiqot jarayonida Imloq-Tunket, Kulota-Tukket, Obliq-Abriq, Namudliq, Ko'xism kabi arxeologik yodgorliklarda va Kandirsoy, Qo'yilqsoy, Oqtoshkon, Toshbuluoq kabi joylardagi metallurgiya punktlarida hamda Piskent hududidagi mozorqo'rg'onlarda qazuv tadqiqot ishlari olib borilgan.

1959-1961-yillarda Yu.F.Buryakov yodgorlikning bir necha joyida katta-kichik hajmdagi arxeologik izlanishlar olib boradi [13:76-123]. Shu uch yillik izlanishlar davrida asosiy e'tiborini yodgorlik stratigrafiyasiga, uning tarixiy topografiyasiga, mudofaa tizimi va turar-joy massivlarini o'rganishga qaratdi. Yu.F.Buryakov olib borgan tadqiqotlari asosida shaharning ko'handiz (Ark) qismi uning shimoli-g'arbiy burchagida joylashgan lekin uning o'mi saqlanib qolmagan degan xulosaga kelgan. Arkning sharq tarafida VI-VII asrlarda atrofi mudofaa devorlari bilan o'rab olingen shahriston va rabod qismi janubi-sharqiy tomonida bo'lganligini aytib o'tadi. Biroq, Yu.F.Buryakovning ta'kidlashicha, ko'handiz keyingi 20 yil davomida zamonaviy qurilishlarning olib borilishi oqibatida buzilib ketganligini ta'kidlaydi. Biroq, bu joydan Arki a'loni eslatuvchi biror belgi topilmagan. Shahriston ichida esa metallurglarning hunarmandchilik ustaxonalari bo'lib, IX-X asrlarda shahar maydoni kengayib borgan, uning shahriston maydoni 17,5 hektarga, shaharning umumiyyat maydoni esa (Ark, shahriston va rabat) 180 hektarga yetadi. Yuqorida eslatib o'tilgan yozma manbalardagi ta'riflar arxeologik tadqiqotlarda o'z tasdig'iini topmagan.

2012-yilda Yu.F.Buryakov rahbarligida Tunkatda [13:76-123] ark o'mini va uning faoliyat davriga aniqlik kiritish maqsadida qazishma ishlari olib boriladi. Ushbu qazishma ishlari keyinchalik A.A.Asqarov boshchiligidagi guruh tomonidan davom ettiriladi. Tadqiqotlar natijasida ark o'mi deb hisoblangan joyda arkka xos atributlar kuzatilmaydi va zodagon dehqon turar joyi bo'lganligi aniqlanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Sug'orma dehqonchilik hududlarida hamda tog'li mintaqalarda metallurgiya markazlari negizida Imloq-Tunkat, To'qkat, Xonobod, Yo'g'ontep, Ulkanto'ytepa, Oqotatepa, Qirjangitepa, Quloqlitepa, Chinoztepa, Nomsiztepa (eski Michurin), Angrendagi nomsiztepa, Seviltepa, No'g'ayqo'rg'on, Oshxonatepa, To'g'aytepa, Maytepa, Oqtepa, Shavushkuntepa, Ishqo'rg'on, Mozortepa 2, Eski Toshkent kabi yangi shaharlar paydo bo'lgan. Jumladan, "Iloq dehqonining" yirik shahri, metallurgiya markazi Tunkat Iloqning ma'muriy boshqaruva markazlaridan biriga aylangan.

Mulkarning Choch va Iloqqa bo'linishi natijasida iqtisodiy va siyosiy hayot vohadagi Chirchiq va Ohangaron darolarning quyi oqimidan, o'rta va yuqori qismiga ko'chib o'tgan. Bu yerlarda mahalliy dehqon mulklari qaror topib, Choch poytaxti vohaning shimoliga, Iloq poytaxti – Tunkat vohaning janubiy qismiga ko'chgan. Bu Toshkent vohasida ikkita ma'muriy va iqtisodiy markazning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan [14:55-58; 71-76].

Maydoni 17 ga bo'lgan to'g'ri burchak ko'rinishidagi Imloq – Tunkat maydonining 5 ga uchburchak shakldagi arki bo'lib, u shaharning shimoli-g'arbiy chekkasida joylashgan. Ayni paytda ilk o'rta asrlarda paydo bo'lgan shaharlarning hududi bilan chegaralangan. Masalan, Imloq – Tunkat o'chami O'rta Osiyo shaharsozligi an'anasisiga xos bo'lgan.

IV-V asrlarda metallurgiya sohasida katta o'zgarishlar yuz berib, ma'dan entish pechlari va mahsulot ishlab chiqarish maskanlari ko'paygan. VI-VIII asrlarda esa metallurgiyaga ixtisoslashgan ustaxona markazlari va shaharlarda maxsus metallsoz hunarmandlarning mahallalari paydo bo'lgan. X asr muallifi al-Hamadoniyning ta'kidlashicha, bu paytda kumush xomashosi pech yordamida eritib olingen [15:46-48]. Vohaning ixtisoslashgan ustaxonalarida xom ashyordan mahsulot tayyorlash uchun to'g'ri to'rburchak, kvadrat va oval shaklidagi o'tga chidamlı ikki yarusli pechlari qurilganligi aniqlangan. Ularni qurishda maxsus olovga tobli g'ishtlardan, sun'iy havo haydovchi silindr ko'rinishidagi mosamlardan foydalanilgan.

Imloq – Tunkatning 5 ga bo'lgan arki tabiiy tepalik ustiga qurilgan. Shu bois uning paxsadan qurilgan devori notekis ko'rinish olgan [16:139-140]. Shahar devoriga tutashib ketgan arkning hajmi va mudofaa tizimidagi o'ziga xos joylashuvi uni mustaqil ma'muriy markaz bo'lganligini ko'rsatadi. Ark hukmdor qasri yoki qarorgohi vazifasini bajargan.

Turk xoqonligi davrida Toshkent vohasida ham xoqonlik tangalar muomalada bo'lgan. Bu paytda bir qator hukmdorliklarda mahalliy mis tangalar ham zarb etilgan [17:7-73].

Imloqning asosiy savdo-iqtisodiy hayoti shaharning sharqi va janubiga yondosh 50 ga dan ortiq bo'lgan rabod qismida ro'y bergan. Uni M.E.Masson va Yu.F.Buryakov o'rta asr manbalaridagi Iloq poytaxti – Tunkat bilan qiyoslagan [16:128]. Lekin Tunkatning o'mini belgilash bugungacha o'z yechimini topmagan. Yozma manbalarda Iloq (Ohangaron) daryosi bo'yida joylashgan Tunkat va Choch poytaxti Binkat oralig'idagi savdo yo'lli masofasi 8 farsax ekanligi qayd etilgan. Mazkur yo'l bo'ylab joylashgan ko'plab shaharlar hozirgacha lokalizatsiya qilinmaganligi Tunkatning o'mini belgilashda muammolar keltirib chiqarmoqda.

Shahar metallsozlik markazi sifatida IX–XI asrlarda yuksak darajada rivojlangan. Lekin XII asrda kon ishlari sustlashib, ko'chmanchilar (Qoraxitoylar) hujumi kuchaygach, karvon yo'llarining yo'naliishi o'zgargan. Bu esa shahar hayotiga salbiy ta'sir etgan va u o'z faoliyatini to'xtatgan.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Tunkat tarixini aniqlashtirish, uning lokalizatsiyasi, topografiyasi masalalariga oydinlik kiritish O'zbekiston tarixining ochilmay turgan jumboqlaridan yana birini aniqlash arxeolog va manbashunos olimlarimiz oldida turgan muhim vazifa sanaladi. Ushbu vazifani amalga oshirishda arxeologik materiallar va yozma manbalarni keng tahsil qilish va ularni bugungi kun tarix fani sohasida faoliyat olib borayotgan ilmiy muhitga yetkazish zarur bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аширов С.А. К локализации Тунката – столицы Илака // Проблемы древней и средневековой истории Чача / Отв. ред. Ш.С.Камолиддин. Saarbrucken: LAP, 2013. – С. 355 – 362.
2. Аскаров А.А., Исабеков Б.И. К вопросу столице средневекового владения Илак. Проблемы древней и средневековой истории Чача// Отв. ред. Ш.С.Камолиддин. Saarbrucken: LAP, 2013. – С. 345-354.
3. Богомолов Г.И. Тункет. Проблемы древней и средневековой истории Чача / Вып. 9. Часть 2. Археология. Отв. ред. Ш.С.Камолиддин. Saarbrucken: LAP, 2022. -С 25-37.
4. ал-Истахри, Китаб масалик ал-мамалик (персидский перевод) // Материалы по истории киргизов и Киргизии (пер. с перс. З.Н.Ворожейкиной). Вып. 1. М.: Наука, 1973. – С. 24-34.
5. Ibn-Hawqal Muhammad ibn 'Ali an-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre(Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H. Kramers, G.Wiet, Preface de Andre Miquel, tome I – II. Paris: Maisonneuve, 1965 (reprint 2001).
6. Хатамова М.М. Турк xoqonligi sha'xarlari. Tariх fannlari bўйича фалсафа доктори (PhD) ilmiy daражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2018. – Б. 127.
7. Камолиддин Ш.С. О градостроительной культуре у древних тюрков // Урбанизация и номадизм в Центральной Азии: исто_рия и проблемы. Материалы Международной конференции. Алматы: Дайк-Пресс, 2004. – С. 354 – 373.
8. Lurje P.B. The element-kath/kand in the place names of Transoxiana, in: ST, 32, fascicule 2, 2003, p. 185-212.
9. Буряков Ю.Ф. Палеоэкологические и этнические процессы в контактных зонах Средней Азии в древности и средневековье (на примере бассейна Яксарта) // International Journal of Asian Studies. – Seoul-Tashkent, 2003. – Vol. 8.
10. Андреев М.С. Местности в долине Ангрена, интересные в археологическом отношении // Известия общ. еств. археологии, истории и этнографии при Казанском университете. Том XI. Вып. 6. – Казан, 1993.
11. Машковцев С.Ф. Куҳи-сим // Геологический вестник. – 1926. – № I-III. – С. 66-99.
12. Массон М.Е. Ахангаран. Археолог-топографический очерк. – Ташкент, 1953. – С. 70- 93.
13. Буряков Ю.Ф. Археологические материалы по истории Тункета и Абрлига. В кн. "Материалы по истории Узбекистана". – Ташкент, 1966. – С. 76-123.
14. Нормуродов Д.Р. Элоқнинг пайтахт шаҳрида олиб борилган янги тадқиқот натижаларидан // ЎзМУ хабарлари, маҳсус сон (ЎзМУ нинг 95 йиллигига бағишланади). – Тошкент, 2013. – Б. 55-58; Уша муаллиф. Тункет шаҳар харабасида олиб борилган янги тадқиқот натижалари // "Ўзбекистонда археология ва этнология фанларининг тарақкуиёти ва истиқболлари" мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2012. – Б. 71-76.
15. Dunlop D.M. Sources of gold and silver in Islam according to al Hamdani (10th century A.D.). // Studia islamica. – 1958. – № 8. – Р. 46-48.
16. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Ташкент: Фан, 1982. – С. 121-140.
17. Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса (VI-VIII в.н.э.). – Ташкент, 2007. – С. 7-73.